

**BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA YANGI
INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISHNING
AHAMIYATI**

N.N.Tashniyazova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7473928>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslarida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Aqliy Xujum", "Tarmoqlar", "Interyu", "Ierarxiya", "Talaba".

**ЗНАЧЕНИЕ ВНЕДРЕНИЯ НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКАЛЬНОЙ
КУЛЬТУРЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Аннотация. В данной статье освещается важность применения новых инновационных педагогических технологий на уроках музыкальной культуры в начальной школе.

Ключевые слова: «Мозговой штурм», «Сети», «Интервью», «Иерархия», «Студент».

**THE SIGNIFICANCE OF IMPLEMENTING NEW INNOVATIVE
PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASS MUSIC CULTURE
LESSONS**

Abstract. This article highlights the importance of applying new innovative pedagogical technologies in elementary music lessons.

Keywords: "Brainstorming", "Networks", "Interview", "Hierarchy", "Student".

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yutuqlarini targ'ib qilish, bu borada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, ilmiy-eksperimental ixtisoslashgan laboratoriyalar, yuqori texnologik markazlar, texnoparklar va boshqa innovatsion tuzilmalarni mustahkamlash yangi vazirlikning faoliyat yo'nalishlaridandir -deb ta'kidlashi ta'lim sohasini yangilashda ham ustuvor vazifa bo'lib sanaladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarimoqda, tafakkuri va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta'lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari ta'limning pedagogik asosi sanaladi. O'quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning

aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mayl va intilishlari bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning mohiyati an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib, ko'proq mustaqil ta'lim tusini olishiga rag'bat berishni, kelajakda esa axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishga o'tishni ta'minlashdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgandir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchi – yoshlar uchun bilimlarning zarur zahirasini beradi. U mustaqil fikrlashni, tashkilotchilik qobiliyatini va amaliy tajriba ko'nikmalarni shakllantiradi. Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan foydalanish dars sifatini tubdan yaxshilaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga etkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga etkazish g'oyasiga mos keladi.

Innovatsion texnologiyaning interfaol metodlaridan foydalanish musiqa darslarida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni tabiiylashtirish, musiqa buyicha o'quvchilarning puxta bilim olishlari, erqin fiqrlashlari, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olishlari, musiqiy ta'limning samaradorligini oshirishga imqon beradi.

"Aqliy xujum" metodi. Mazkur metoddan foydalanish uchun o'quvchilarni oldilariga qo'yilgan muammo yuzasidan qeng va mantiqli fiqrlashga o'rgatish, xar bir o'quvchi shaxsiy fiqrini bildirish va uni asoslashiga imqon beriladi. O'quvchilarning aytgan ixtiyoriy fiqrlari faqat rag'batlantiriladi va ular baxolanmaydi, bu esa ularning muammo yuzasidan yangi-yangi fiqrlarni bildirishlariga olib qeladi. Bunda taxlil qilinayotgan muammo yuzasidan o'quvchilarga qeng imqoniyat yaratib berish muximdir.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogiq va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan –kunga quchayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari qeltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogiq texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarni bilimli, etuq malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogiq jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kqiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu –jamo bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogiq ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi – talabalarning birgalikda faoliyat qo'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq quylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida etakchi faoliyat turi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy-estetiq tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u quylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emostional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq quylash bola shaxsi

tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdeq, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongilligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Qo'shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bo'g'inlab, xatosiz o'rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar. Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoqi orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Musiqa o'qituvchisi - rahbari bolalarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi. Bola ovozni o'ziga xos xususiyatlari bog'cha bolalarining ovozi nozik, yumshoq mayin bo'ladi. Bola tomog'i undagi bo'g'in bilan katta kichkina bo'ladi. SHuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo'linadi: 1. yuqori bosh rezonator. 2. pastqi ko'kraq rezanatori.

Qo'qraq rezanatori ovozni quchaytirib beradi. Bosh rezanator esa ovozni jarangli qilib beradi. Kuylash – bu muraqqab jarayon bo'lib, tovush hosil qiladi, ya'ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlarda qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar.

O'quvchilarda kuylash malaqalarini samarali shaqllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og'iz, burun bo'shlig'i, halqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar ovoz hosil qiluvchi a'zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish buyicha ish asta-seqin olib boriladi. SHuni inobatga olgan holda maktab ta'lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan.

SHuni aytib o'tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo'ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaqlari vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to'liq shakllanadi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. SHundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo'shiq o'rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak.

1-sinf o'quvchilari ovozi mi 1-sol 1, fa 1- lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. SHuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha muraqqab bo'lmagan, sodda, ammo xarakteri va obraz jihatdan erkin qo'shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-seqin qo'shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo'shiqda o'quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko'rgazmalar va haraqlatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta'minlaydi va tovush balandligini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi.

2-sinf o'quvchilarining ovozlari esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. SHu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. SHuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda engil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak. Asta-seqin quylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re 1 - re 1 ga o'tadi.

3-, 4- o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re 2 (mi 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular quylash malaqalariga ega bo'ladilar.

5-sinfda 11-13 yoshli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi ishida qiyinchiliklar vujudga qeladi. CHunqi bu davrda hiqildoqning o'sishi natijasida bolalar ovozida «mutastiya» holati kuzatiladi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolari.

O'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaniing maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, taraqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi –talabaga bog'liq.

O'qitish jarayonida o'quvchi – talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fiqrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni quchaytiradi.

Bunday natijaga erishi amaliyotda o'quv jarayonida innovastion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodiq qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi – talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, etuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar - texnologiyalarga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tqazish tartibi to'g'risida metodiq tavsifnoma berib o'tamiz:

“TARMOQLAR” metodi - o'quvchi – talabani mantiqiy fiqrlash, umumiy fiqr doirasini qengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

“3x4” metodi - o'quvchi – talabalarni erqin fiqrlash, qeng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yaqqa, qtchtaq guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“BLIST –O'YIN” metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fiqrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

“INTERYU” texnikasi o'quvchi - talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

“IERARXIYA” texniqasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fiqrlashga o'rgatishga qaratilgan.

“TALABA” treningi - o‘quvchi – talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘siqni yo‘q qilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, Milliy istiqloq mentalitetimizga mos tarzda qurilgan va jihozlangan ilm maskanlarini kelajagi yuksak, bilimli yoshlarga ochib berdi. Yoshlar deganda, harakatchan, o‘z qizikishlari, orzu-umidlari bilan ajralib turuvchi katta ijtimoiy guruh ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston aholisining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 63 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yangi avlod vakillari tashkil qiladi. Bundan uzluksiz ta‘lim tizimidagi yangicha islohotlarning ahamiyati qanchalar muhim ekanligini yanada chuqurroq his etamiz.

Yoshlar – yurtimizning istiqboli, kelajagi. SHu bois, ular mamlaqatimiz taraqqiyoti va farovonligi yo‘lida, ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari sifatida ulg‘ayib, dadil intilishlari bilan buyuk davlatimizning poydevorini yanada mustahqamlovchi bunyodkor kuchdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga egadir, Yoshlar hayotida san‘at, adabiyot, sport muhim o‘rin tutadi deb takidlaydilar. Shunday ekan biz bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlarga labbay deb javob bermog‘imiz lozimdir.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent O‘zbekiston nashryoti 2017-yil.
2. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va Faravon, Demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.”. Toshkent O‘zbekiston nashryoti 2016-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
4. D. Omonullayeva. Darsda xalq merosi o‘rganish. Boshlang‘ich ta‘lim 1993 yil.
5. X Nurmatov. musiqa alifbosi 1-sinf darslik Toshkent “O‘qituvchi” 1999 yil.
6. X. Nurmatov. Musiqa 2-sinf darslik Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi “Adabiyot va San‘at” nashriyoti. 2001 yil.
7. -WWW.Ziyonet.
8. -Pedagog.uz.